

**Ahmad Farg‘oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya bo‘limi**



**O‘zbekiston xalq yozuvchisi, jamoat arbobi O‘tkir Hoshimov
(1941-2013) tavalludining 80 yilligi
munosabati bilan “El ardog‘idagi adib” nomli**

TAVSIYAVIY RO‘YXAT

Farg‘ona - 2021

O'tkir Hoshimov (1941-2013)

O'tkir Hoshimov 1941 yilning 5 avgustida Toshkent viloyatining Zangiota tumani Do'mbirobod mavzeida tavallud topdi. Bolaligi urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechgan.

1958 yilda o'rta maktabni bitirib, Toshkent Davlat universiteti jurnalistika bo'limining avval sirtqi, so'ngra kunduzgi bo'limida o'qib, 1964 yilda tugatadi. 1959-1960 yillarda "Temir yo'lchi", 1960 yilda hozirgi "O'zbekiston ovozi", 1960-1982 yillarda "Toshkent haqiqati", "Toshkent oqshomi", 1982-1983 yillarda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, 1985-1995 yillarda "Sharq yulduzi" jurnaliga bosh muharrir va 1995 yildan 2004 yilgacha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Matbuot va axborot qo'mitasi raisi sifatida faoliyat ko'rsatib keldi. Keyinchalik "Teatr" jurnalida muharrirlik qildi.

O'tkir Hoshimov o'z ijodini she'r va ocherklar yozishdan boshladi. 1962 yilda uning "Po'lat chavandozlar" ocherklar to'plami bosilib chiqdi. Shundan keyin uning birin-ketin hikoya, qissa va romanlari kitobxonlarning qo'liga borib tegdi. Uning ilk qissasi "Cho'l havosi" (1964) adabiy jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olindi. Atoqli adib Abdulla Qahhor bu qissa haqida o'sha paytda juda yaxshi fikr bildirgan. O'tkir Hoshimovning bu qissasiga yozgan oq yo'lida u "Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi", - deb bashorat qilgan edi. Shu asardan yozuvchining izlanish va mashqlar davri boshlandi. Adib ijodidagi ilk qadamlaridayoq inson ma'naviyati, ruhiyati, hissiyoti, qalb haqiqati tadqiqotchisi sifatida ko'ringan edi.

Roman, qissa, hikoyalarida so'z san'atining azaliy bosh muammosi - inson taqdiri va qalbining badiiy tahlili ham mavjud edi. Muallif dolzarb ijtimoiy muammolar talqini bilan yondosh holda ko'p o'rnlarda personajlar ruhiyatidagi g'oyat nafis jarayonlarni san'atkorona ifoda etardi. "Cho'l havosi", "Muhabbat", "Nigora", "Shamol esaveradi" nomli hikoya va qissalar shundan dalolatdir.

Keyinroq u dolzarb, ijtimoiy muammolar talqiniga ko'proq moyillik bildirib, ayni zamonda bevosita ma'naviyat, ruhiyat tahliliga bag'ishlangan asarlar ustida ish olib bordi. Yozuvchining shu yo'nalishdagi "Qalbingga quloq sol" (1973), ayniqsa, "Bahor qaytmaydi" (1970), "Dunyoning ishlari" (1982) qissalari unga katta shuhrat keltirdi.

"Bahor qaytmaydi" (1970) qissasida yozuvchi iste'dodli, biroq uning qadriga yetmagan, ulug' maqsadlardan mahrum xudbin yigitning tanazzul tarixini, ruhiy-ma'naviy inqirozini san'atkorona tahlil etib berdi. Bundan adibning haqiqiy ijod yo'liga kirganligini ko'ramiz.

O'tkir Hoshimov asardan-asarga o'sib bordi. Unda nafosat tuyg'usi behad kuchli. Hatto u aldangan odamning ma'naviy inqirozi, fojeasi, halokati tasvirida ham shu tuyg'usini saqlab qoladi. Ayniqsa, u yaxshi, oliyanob, ma'naviy barkamol odamlar qalbi tahlilida o'zini nihoyatda erkin his etadi. Uning ijobiy qahramonlari aksari go'dakday beg'ubor, nafosat tuyg'usiga boy, hissiyotli, o'ta ta'sirchan odamlardir.

Yozuvchi ijodiga xos liro-romantik tarona uning “Dunyoning ishlari” qissasida eng baland pardalarda jarangladi. Bu asar ona haqidagi, ona qalbining cheksiz sahovati to‘g‘risidagi o‘ziga xos qasidadir. Asardagi Ona - farzandi, uning oromi, baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor. U ming-minglab o‘zbek onalarining timsoliga aylandi. Har bir o‘zbek kitobxoni unda o‘z onasining qandaydir fazilatini topgandek bo‘ladi. Qissadagi “Alla”, “Oq marmar, qora marmar” kabi novellalarda onanining farzandi qalbida qoldirgan armonlari haqida o‘tkir yozilgan. Kishi bularni o‘qir ekan, tasvirdan ko‘ngli allanechuk bo‘lib ketadi.

O‘tkir Hoshimovning “Oq kamalak” to‘plami ham hayotiy muammolar, to‘g‘rirog‘i, turmush tashvishlari to‘g‘risida bahs yuritadi.

Yozuvchining birinchi romani – “Nur borki, soya bor” 1977 yili nashr qilindi. Roman chiqishi hamono turli fikr-mulohazalarga sabab bo‘ldi. Asarda ko‘pgina hayotiy, muhim ahamiyatga ega muammolar ko‘tarilgan edi. Bular azaldan kishilik jamiyatining falsafasi bo‘lmish “nur” va “soya”lar orasidagi kurash, tortishuv fonida yoritiladi.

Asar o‘z davrida adabiy tanqidchilik tomonidan iliq kutib olindi, unga munosib baho berildi, faqat romanga keskin to‘qnashuvlar va kolliziylar yetishmasligi qayd qilindi. Bundan tashqari, O‘tkir Hoshimov O‘rta Osiyo respublikalarining qator teatrlarida namoyish qilingan “To‘ylar muborak”, “Sizdan ugina, bizdan bugina”, “Inson sadoqati”, “Qatag‘on” kabi pesalarining muallifidir.

O‘tkir Hoshimov E.Hyeminguyey, K.Simonov, A.Kuprin, O.Berggols singari yozuvchilar asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Ijodkor 80-yillar o‘zbek publisistikasi rivojiga salmoqli hissa qo‘sghan adiblardan biridir. Uning odob-ahloq, ma’naviy olam, milliy qadriyatlar, sho‘ro davri adolatsizliklarini dadil yoritgan ocherk va teleko‘rsatuvlari bu davrning barkamol mevalaridir.

Muallifni endi kundalik dolzarb ijtimoiy masalalar emas, ko‘proq azaliy ma’naviy muammolar, inson taqdiri, uning qalbi jumboqlari qiziqtiradi. Bu narsa “Ikki eshik orasi” romanida ayniqsa, ravshan ko‘rindi. Bu bilan adib ijodiy yo‘lining yetuklik bosqichi boshlandi. Yozuvchining “Ikki eshik orasi” romani ham kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi. Roman 1986 yilning eng yaxshi asarlaridan deb topilib, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgandi. “Ikki eshik orasi” romanida o‘z davrining muhim muammolari qalamga olindi, o‘sha yillar voqeahodisalariga munosabat bildirildi. Romanning asosiy qahramonlari ikkinchi jahon urushi og‘irliliklarini yelkasida ko‘targan, unda mardona g‘olib chiqqan kishilardir. Umuman olganda, romanda butun jamiyat kishilarining urush davridagi fidokorligi o‘zining badiiy ifodasini topgan. Roman qahramonlaridan biri Muzaffar - urush davrida muayyan qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, 70-yillarga kelib farovon turmushga erishgan Yoshlarning timsoli tarzida beriladi. Romanning sarlavhasidan tortib, deyarli butun mazmunigacha yozuvchi jiddiy falsafiy ma’no yuklashga intilgan.

Xususan, u “Ikki eshik orasi” deganda inson umrini, ya’ni tug‘ilgandan o‘lgungacha bosib o‘tgan yo‘lni ko‘zda tutadi. Muallifning g‘oyaviy falsafasiga ko‘ra bu yo‘l juda

murakkab va ziddiyatli bo‘lib, uni muvaffaqiyat bilan bosib o‘tishi uchun insondan katta matonat, iroda, bilim va jasorat talab qilinadi. Asardagi ko‘pchilik qahramonlar, xususan, Oqsoqol, Qora amma, Robiya, Shomurod, Kimsan huddi shunday jasoratli va ruhan boy kishilar bo‘lib, ko‘p jihatdan yozuvchining g‘oyaviy maqsadini ta’sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Muallif falsafasiga ko‘ra o‘z umrini sharaf bilan bosib o‘tmog‘i uchun insondan katta matonat va jasorat talab qilinishining sababi shundaki, u o‘z hayoti davomida og‘ir kurashlar girdobidan, yengib bo‘lmas to‘siqlardan o‘tishga majbur bo‘ladi. Asarda huddi shunday inson hayotining to‘siqlari, illatlari sifatida Umar zakonchi, Ra’no, Zuhra kabi shaxslar timsoli yaratilgan bo‘lib, ular romandagi kurashlar, to‘qnashuvlar, ma’naviy ixtiloflar keskinligini, tarangligini oshirishga imkon tug‘dirgan.

Hayotdagи illatlarga qarshi ayovsiz o‘t ochish istagi O‘tkir Hoshimovni “Ikki eshik orasi” romanidan keyin tadrijiy ravishda hajviyotga murojaat qilishga olib keldi. Oqibatda uning “Ikki karra ikki – besh” qissasi maydonga keldi. Yozuvchining ilgarigi asarlarida ahyon-ahyonda hajviyot uchrab turar edi. “Ikki karra ikki – besh” qissasi esa, ulardan butunicha hajviy uslubda yozilganligi bilan farq qiladi. Hajviyot tig‘ini hayotdagи martabali kishilarga, katta rahbarlarga, xususan, raislarga qaratgani va ularning ma’naviy tubanligini ro‘yi-rost fosh qilishga intilgani bilan yozuvchi qissaning ko‘p sahifalari ta’sirchan va qiziqarli bo‘lib chiqishiga erishgan. Faqat dalillash san’atining yetishmaganligi va ayniqla, raisning o‘g‘li o‘z otasiga qarshi keskin kurashga kirishishi yaxshi asoslanmaganligi sababli qissa 80-yillar o‘zbek hajviyotidagi sezilarli hodisa darajasiga ko‘tarilmay qoldi.

Yuqorida tilga olingan so‘nggi ikki asarida O‘tkir Hoshimovning inson ma’naviy olamini, psixologiyasini teran tahlil qilish mahorati ancha oshganligi aniq-ravshan sezilib turadi. Bunda yozuvchi turli-tuman vositalar qatorida qahramonlarning dil izhorlaridan, ichki monologlaridan unumli foydalangan. Ichki monologlar qo‘llashda yuqoridagi asarlarda boshlangan usuldan yozuvchi “Tushda kechgan umrlar” romanida yanada ustalik bilan foydalandi. “Tushda kechgan umrlar” romanida voqealar qamrovi juda keng: 30-yillarning mash’um “qatag‘on” qilish manzaralari, 80-yillarda Afg‘oniston urushi lavhalari, shu yillarda sodir bo‘lgan “o‘zbek ishi” mojarolari. Bu uchta yirik, juda katta hajmli voqealarni bir-biri bilan bog‘lashda, ular orasiga “biriktirish nuqtasini” topishda muallif ichki monologdan unumli foydalanadi.

Romandagi Rustam, Shahnoza kabi qahramonlar ruhiy olamining talqini huddi shunday xulosa chiqarishga imkon beradi. Faqat roman kompozisiyasining nomukammalligi uning adabiyotda juda katta hodisa darajasiga ko‘tarilishiga halaqit bergandek tuyuladi. Kompozisiyadagi tarqoqlik, ayniqla, Rossiyanan yuborilgan kishilar hayotiga, faoliyatiga bog‘liq voqealarning, tafsilotlarning asosiy syujet chiziqlariga uzviy bog‘lab yuborilmaganida yaqqol seziladi.

Shunga qaramay, yozuvchining so‘nggi asarlari O‘tkir Hoshimovning hozirgi o‘zbek nasridagi sermahsul ijodkorlardan biri darajasiga ko‘tarilganligidan guvohlik beradi. O‘tkir Hoshimovga samarali ijodiy mehnati uchun 1991 yili “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” faxriy unvoni berilgan. U “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan ham taqdirlangan.

O‘zbek adabiyoti va san’ati og‘ir judolikka uchradi. Atoqli adib, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov 2013 yil 24 may kuni 72 yoshida vafot etdi.

Axborot kutubxona markazi tomonidan O‘zbekiston xalq yozuvchisi, jamoat arbobi O‘tkir Hoshimov tavalludining 80 yilligi munosabati bilan “El ardog‘idagi adib” nomli bibliografik qo‘llanma tayyorlandi. Ushbu tavsiyaviy ro‘yxatdan o‘qituvchilar, kutubxonachilar, talabalar va O‘tkir Hoshimov hayoti bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov hayoti va faolyatining asosiy sanalari.

1941 yil 5 avgust – Toshkent viloyatining Zangiota tumani Do‘mbirobod mavzeida tavallud topgan.

1962 yilda – Ilk kitobi – “Po‘lat chavandoz” e’lon qilingan.

1964 yilda – ToshDUNing filologiya fakulteti jurnalistika bo‘limini tugatgan.

1959-1962 yillar – “Qizil O‘zbekiston” gazetasida

1963-1966 yillar – “Toshkent haqiqati” gazetasida

1966-1982 yillar – “Toshkent oqshomi” gazetasida adabiy xodim, bo‘lim mudiri lavozimlarida ishlagan.

1982-1985 yillar – G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida bosh muharrir

1985-1995 yillar – “Sharq yulduzi” jurnalida

2005 yilda – “Teatr” jurnalida bosh muharrir lavozimlarida ishlagan.

1986 yilda – Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati

1996 yilda – “Mehnat shuhrati”

2001 yilda – “Buyuk xizmatlari uchun”

1991 yilda – O‘zbekiston xalq yozuvchisi unvonini olgan.

1995-2004 yillar – 1, 2-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи deputati, Oliy Majlis Matbuot va axborot qo‘mitasi raisi lavozimlarida ishlagan.

2013 yil 24 may – O‘zbekiston xalq yozuvchisi, el sevgan adib O‘tkir Hoshimov 72 yoshida vafot etdi.

O‘tkir Hoshimov asarlari

1984

1. Hoshimov, O‘. Oq kamalak : Hikoyalalar, o‘ylar / O‘. Hoshimov; Muharr. M. Tosho‘latov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984 (Matbuot). – 176 b.

Ushbu kitobga yozuvchining bir qancha hikoyalari kiritilgan, kitob keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

1987

2. Hoshimov, O‘. Xazina : / O‘. Hoshimov; Muharr. M. Mansurov. – Toshkent: O‘zbekiston, 1987 (Matbuot). – 126 b.

Ushbu kitobda muallif zamondoshlari bilan insoniylik haqida muloqotga kirishadi. Kitob keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

1991

3. Hoshimov, O‘. Iztirob : Hikoyalalar / O‘. Hoshimov; Muharr. A. Mamajonov. – Toshkent: Yozuvchi, 1991 (Matbuot). – 32 b.

Ushbu kitobda yozuvchining hikoyalari bilan tanishasiz. Muhtaram kitobxon kitob keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

1994

4. Hoshimov, O‘. To‘ylar muborak : Hajviy hikoyalalar, komediya / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Navro‘z, 1994. – 79 b.

Ushbu kitobdan O‘tkir Hoshimovning hajviy 6 ta hikoyasi va 1 ta komediyasi o‘rin olgan. Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

1998

5. Hoshimov, O‘. Osmondan tushgan pul / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. – 104 b.

“Osmondan tushgan pul” to‘plamiga adibning yurt Istiqloli ravnaqiga halaqit berayotgan illatlarni qoralovchi, tabassum va istehzoga yo‘g‘irilgan yangi hikoyalari va turli yillarda yozilgan asarlari jamlangan.

6. Hoshimov, O‘. Umr savdosi / 2 jildlik / O‘. Hoshimov Muharr. G. Zokirova. – Toshkent: Sharq, 1998 (Matbaa). – 688 b.

Ushbu romanda o‘zbek xalqining g‘aroyib xususiyatlari, jo‘mardligi, har qanday vaziyatda ham imonini yo‘qotmasligi, mehri daryoligi teran tuyg‘ular, yorqin bo‘yqlarda tasvirlangan. Roman keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

7. Hoshimov, O‘. Saylanma : 2 tomlik / O‘. Hoshimov T.1 Nurli dunyo / Muharr. G. Zokirova. – Toshkent: Sharq, 1998 (Matbaa). – 688 b.

Adibning 2 jildlik saylanmasiga eng sara asarlari jamlangan. Birinchi jilddan joy olgan “Dunyoning ishlari”, “Nur borki, soya bor”, “Tushda kechgan umrlar” kabi yirik asarlar, turli yillarda yozilgan hikoyalari o‘quvchini larzaga solishiga ishonamiz.

8. Hoshimov, O‘. Saylanma : Umr savdosi, Ikki eshik orasi / O‘tkir Hoshimov 2 T. Hikoyalar, hajviy hikoyalar, o‘ylar / Muharr. G. Zokirova. – Toshkent: Sharq, 1998 (Matbaa). – 688 b.

Saylanmaning ikkinchi jildida yozuvchining hikoyalari, hajviy asarlari hamda inson qismati tabiatini va jamiyat taqdirini o‘ylab, kuyunchaklik bilan yozgan mulohazalari o‘rin olgan.

2000

9. Hoshimov, O‘. Ikki eshik orasi : Roman / O‘. Hoshimov; Muharr. Sh. R. Ergashova. – Toshkent: Sharq, 2000 (Matbaa). – 608 b.

Yozuvchi ko‘plab hikoyalar, qissalar, romanlar yaratdi. Mazmunan teran ko‘pchiligi yoshlari o‘rtasida ham, kattalar o‘rtasida ham sevilib o‘qiladi. Ushbu kitob keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

2001

10. Hoshimov, O‘. Saylanma : Ikki jildlik: Qissalar, hikoyalar, sahna asarlari, hajviy hikoyalar, o‘ylar / O‘. Hoshimov; Muharr. M. Yo‘ldosheva, Rassom. T. Gerasimova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyoti, 2001 (Matbuot). – 464 b.

O‘tkir Hoshimovning bundan qirq yil avval yozilgan hikoya, qissa, romanlari, dramatik va publisistik asarlarini o‘qisangiz ham, bir yil avval e’lon qilingan asarlarini mutolaa qilsangiz ham birdek hayajonga tushasiz.

2007

11. Hoshimov, O‘. *Ikki eshik orasi* : Roman / O‘. Hoshimov; Muharr. Sh. Ergasheva. – Toshkent: Sharq, 2007 (Matbaa). – 576 b.

Ushbu asarda adib qariyb qirq yillik davrni o‘z ichiga olgan, bir qancha chigal va murakkab taqdirlar misolida o‘z xalqining urush davrida boshdan kechirgan hayoti, qismati haqida mahorat bilan qalam tebratgan.

2008

12. Hoshimov, O‘. *Dunyoning ishlari* : Qissa / O‘. Hoshimov; Muharr. Г. Зокирова. – Toshkent: Sharq, 2008 (Sharq). – 206 b.

Yozuvchi ijodiga xos liro-romantik tarona uning “Dunyoning ishlari” qissasida eng baland pardalarda jarangladi. Bu asar ona haqidagi, ona qalbining cheksiz sahovati to‘g‘risidagi o‘ziga xos qasidadir. Asardagi Ona - farzandi, uning oromi, baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor. U ming-minglab o‘zbek onalarining timsoliga aylandi. Har bir o‘zbek kitobxoni unda o‘z onasining qandaydir fazilatini topgandek bo‘ladi.

13. Hoshimov, O‘. *So‘qqabosh bevagina* : Hajviy hikoyalari / O‘. Hoshimov; Muharr. K. Qayumov. – Toshkent: Sharq, 2008. – 220 b.

Elimizning ardoqli va atoqli adibi O‘tkir Hoshimovning salmoqli asarlari, o‘nlab hikoyalari xalqning ma’naviy mulkiga aylangan. Shu bilan birga adibning ko‘pgina hajviy hikoya va qissalari, komediyalari ham borki, ular kitobxonga hushchaqchaq kayfiyat bag‘ishlaydi. Ushbu kitobga yozuvchining eng sara hajviy hikoyalari kiritilgan.

2009

14. Hoshimov, O‘. *Sakkizinchi mo‘jiza* : Adabiy o‘ylar. Hayoti va faoliyati / O‘. Hoshimov; Muharr. I. G‘afurov. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2009. – 216 b.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, el sevgan adib O‘tkir Hoshimovning ushbu kitobiga yozuvchi hayoti va ijodining muhim sanalari, asarlarining bibliografiyasi, ijod va ijodkorlar adabiy o‘ylari, nutqlar, suhbatlar va sakkizinchi mo‘jiza nomli badialar kiritilgan.

15. Hoshimov, O‘. Badbaxtdala tutquni : Hikoyalar, hajviyalar, o‘ylar / O‘. Hoshimov; Muharr. X. Qodirova, Muharr. S. Abdusamatova. – Toshkent: Davr Press, 2009 (Maxigraf plus). – 160 b.

Ushbu kitobga O‘tkir Hoshimovning eng sara hikoya va hajviyalari, Vatan va el manfaati haqidagi o‘ylari kiritilgan. Ular sizni hayajonga solishiga ishonamiz. Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

16. Hoshimov, O‘. Tanlangan asarlar / O‘tkir Hoshimov T.1. Qissalar, sahna asarlari, hikoyalar / Muharr. K. Qayumov. – Toshkent: Sharq, 2009 (Shark). – 448 b.

Elimizning atoqli va ardoqli adibi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Tanlangan asarlar”iga xalqimizning ma’naviy mulkiga aylangan eng yaxshi hikoya va qissalari, roman va dramalari, Vatan va xalq manfaati, Istiqlol g‘oyalarini tarannum etuvchi, jonkuyarlik, jasorat bilan yozilgan publisistik asarlari kiritilgan.

17. Hoshimov, O‘. Tanlangan asarlar / O‘tkir Hoshimov T.2. Qissalar, hikoyalar, hajviyalar, o‘ylar / Muharr. K. Qayumov. – Toshkent: Sharq, 2009 (Sharq). – 448 b. O‘tkir Hoshimovning ushbu kitobida uning turli yillarda yozgan qissalari, hajviyalari, hikoyalari va o‘ylari jamlangan. Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

2010

18. Hoshimov, O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar : / O‘. Hoshimov; Muharr. G. Xaitova. – Toshkent: Sharq, 2010 (Sharq). – 334 b.

Ushbu kitobda O‘tkir Hoshimovning ellik yillik kuzatuvlari, o‘ylari, bir qadar armonli, bir qadar istehzoli, bir qadar tabassumli xulosalari o‘rin olgan.

19. Hoshimov, O‘. Insof : / O‘. Hoshimov; Muharr. M. Rixsibekova. – Toshkent: Davr Press, 2010. – 228 b.

O‘tkir Hoshimov tom ma’noda xalq yozuvchisi. Adibning qator roman va qissalari, yuzdan ortiq hikoya va hajviyalari, sahna asarlari, telefilmlari elimizning ma’naviy mulkiga aylangan. Ushbu kitob keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

20. Hoshimov, O‘. Oq bulut, oppoq bulut : Hikoyalar, hajviy qissalar / O‘. Hoshimov; Muharr. M. Tillayev. – Toshkent: Davr Press, 2010. – 224 b.

Ushbu kitobga xalqimizning ardoqli yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning hikoyalari, xajviy hikoyalari, qissalari kiritilgan. Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

2011

21. Hoshimov, O‘. Ikki eshik orasi : Roman/ O‘. Hoshimov; Muharr. U. Hoshimova. - Toshkent: Meriyus, 2011. – 548 b.
Ushbu asarda adib qariyb qirq yillik davrni o‘z ichiga olgan, bir qancha chigal va murakkab taqdirlar misolida o‘z xalqining urush davrida boshdan kechirgan hayoti, qismati haqida mahorat bilan qalam tebratgan.

22. Hoshimov, O‘. Daftар hoshiyasidagi bitiklar : ocherklar, esse / O‘. Hoshimov; Muharr. G. Xaitova. – Toshkent: Sharq, 2011. – 336 b.
Ushbu kitobda O‘tkir Hoshimovning ellik yillik kuzatuvlari, o‘ylari, bir qadar armonli, bir qadar istehzoli, bir qadar tabassumli xulosalari o‘rin olgan.

2012

23. Hoshimov, O‘. Ikki eshik orasi : Roman / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Sharq, 2012. – 624 b.

Ushbu asarda adib qariyb qirq yillik davrni o‘z ichiga olgan, bir qancha chigal va murakkab taqdirlar misolida o‘z xalqining urush davrida boshdan kechirgan hayoti, qismati haqida mahorat bilan qalam tebratgan.

24. Hoshimov, O‘. Dunyoning ishlari : Roman / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Sharq, 2012. – 576 b.

Yozuvchi ijodiga xos liro-romantik tarona uning “Dunyoning ishlari” qissasida eng baland pardalarda jarangladi. Bu asar ona haqidagi, ona qalbining cheksiz sahovati to‘g‘risidagi o‘ziga xos qasidadir. Asardagi Ona - farzandi, uning oromi, baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor. U ming-minglab o‘zbek onalarining timsoliga aylandi. Har bir o‘zbek kitobxoni unda o‘z onasining qandaydir fazilatini topgandek bo‘ladi.

25. Hoshimov, O‘. Ajdarning tavbasi : Hajviy qissa va hikoyalar./ O‘. Hoshimov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 368 b.

Mazkur to‘plamga yozuvchining eng sara hajviy asarlari jamlangan.

26. Hoshimov, O‘. Tanlangan asarlar / O‘tkir Hoshimov T.6 Daftар hoshiyasidagi bitiklar. Qissa. Hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2012. – 496 b.

Ushbu kitobda O‘tkir Hoshimovning ellik yillik kuzatuvlari, o‘ylari, bir qadar armonli, bir qadar istehzoli, bir qadar tabassumli xulosalari o‘rin olgan.

2013

27. Hoshimov, O‘. Dunyoning ishlari : roman / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Sharq, 2013. – 576 b.

Yozuvchi ijodiga xos liro-romantik tarona uning “Dunyoning ishlari” qissasida eng baland pardalarda jarangladi. Bu asar ona haqidagi, ona qalbining cheksiz sahovati to‘g‘risidagi o‘ziga xos qasidadir. Asardagi Ona - farzandi, uning oromi, baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor. U ming-minglab o‘zbek onalarining timsoliga aylandi. Har bir o‘zbek kitobxoni unda o‘z onasining qandaydir fazilatini topgandek bo‘ladi.

28. Hoshimov, O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Sharq, 2013 (Sharq). – 336 b.

Ushbu kitobda O‘tkir Hoshimovning ellik yillik kuzatuvlari, o‘ylari, bir qadar armonli, bir qadar istehzoli, bir qadar tabassumli xulosalari o‘rin olgan.

29. Hoshimov, O‘. Sevgi qissalari : hikoyalar va qissalar / O‘. Hoshimov; Muharr. M. Igamova. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – 480 b.

Elimizning atoqli va ardoqli adibi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov ham muhabbat haqida talay hikoya, qissa, romanlar yozgan va ular kitobxonlar tomonidan qiziqish bilan mutolaa qilib kelinmoqda. Bu asarlarda sevgining sehr quvonchlari, iztirob va armonlar g‘oyat hayotiy, ta’sirchan aks etgan. Ushbu kitobga adibimizning eng hayajonli asarlari jamlangan.

2014

30. Hoshimov, O‘. Yarim asr daftari / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Movarounnaxr, 2014. – 384 b.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning ushbu kitobi qariyb ellik yillik kuzatuvlari mahsulidir. Sahifalarni varaqlar ekansiz, adib atrofdagilarga cheksiz mehr, samimiyat e’tibor bilan yondashganini guvohi bo‘lasiz. Ushbu kitob adib siyomosi, uning hayoti va ijodi haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitadi.

31. Hoshimov, O‘. Insof / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Davr Press, 2014. – 228 b.

Sevimli yozuvchimiz O‘tkir Hoshimov asarlari qalbimiz ardog‘ida. Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan “Insof” kitobi siz aziz kitobxonlar tomonidan sevib o‘qilayotganligini inobatga olib, qayta chop etildi.

2015

32. Hoshimov, O‘. Dunyoning ishlari : qissa va hikoyalar / O‘. Hoshimov; Muharr. F. Quvanova. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 336 b.

Yozuvchi ijodiga xos liro-romantik tarona uning “Dunyoning ishlari” qissasida eng baland pardalarda jarangladi. Bu asar ona haqidagi, ona qalbining cheksiz sahovati to‘g‘risidagi o‘ziga xos qasidadir. Asardagi Ona - farzandi, uning oromi, baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor. U ming-minglab o‘zbek onalarining timsoliga aylandi. Har bir o‘zbek kitobxoni unda o‘z onasining qandaydir fazilatini topgandek bo‘ladi.

33. Hoshimov, O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Sharq, 2015. – 336 b.

“Aziz o‘quvchim! Bu kitobni yoza boshlaganimga ellik yil bo‘layapti. Bular-mening kuzatuvlarim. O‘ylarim. Bir qadar armonli, bir qadar istehzoli, bir qadar tabassumli Xulosalarim... Aslida ularning har birini alohida asar qilsa ham bo‘lardiku, mayli... Iltimos, siz xam kitobni shoshilmasdan, o‘ylab o‘qisangiz...” muallifdan.

34. Hoshimov, O‘. Sevgi qissalari : hikoyalar va qissalar / O‘. Hoshimov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – 480 b.

Elimizning atoqli va ardoqli adibi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov ham muhabbat haqida talay hikoya, qissa, romanlar yozgan va ular kitobxonlar tomonidan qiziqish bilan mutolaa qilib kelinmoqda. Bu asarlarda sevgining sehr quvonchlari, iztirob va armonlar g‘oyat hayotiy, ta’sirchan aks etgan. Ushbu kitobga adibimizning eng hayajonli asarlari jamlangan.

2016

35. Hoshimov, O‘. Bahor qaytmaydi : qissa va hikoyalar / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 280 b.

“Bahor qaytmaydi” (1970) qissasida yozuvchi iste’dodli, biroq uning qadriga yetmagan, ulug‘ maqsadlardan marhum xudbin yigitning tanazzul tarixini, ruhiy-ma’naviy inqirozini san’atkorona tahlil etib berdi. Bundan adibning haqiqiy ijod yo‘liga kirganligini ko‘ramiz.

36. Hoshimov, O‘. Ikki eshik orasi : roman / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Sharq, 2016. – 624 b.

Ushbu asarda adib qariyb qirq yillik davrni o‘z ichiga olgan, bir qancha chigal va murakkab taqdirlar misolida o‘z xalqining urush davrida boshdan kechirgan hayoti, qismati haqida mahorat bilan qalam tebratgan.

37. Hoshimov, O‘. Ajdarning tavbasi : Hajviy qissa va hikoyalari / O‘. Hoshimov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 424 b.

O‘tkir Hoshimov serqirra adib. Uning o‘nlab hajviy hikoyalari, komediyalari, ichakuzdi hangomalarini o‘qiganda, dilingiz ravshan tortadi, beixtiyor qah-qah urib kulasiz. Mazkur to‘plamda yozuvchining eng sara hajviy asarlari jamlangan.

38. Hoshimov, O‘. Nur borki soya bor : roman / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 288 b.

O‘tkir Hoshimovning e’tiboringizga havola etilayotgan navbatdagi “Nur borki, soya bor” asari nashriyotimizning sevimli kitobxonlariga taqdim etayotgan yangi tuhfasidir. Asarda jamiyat hayotidagi illatlar, turg‘unlikning mohiyati, inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muammo va qadryatlar, insonlar o‘rtasidagi sevgi va xiyonat, bir so‘z bilan aytganda, “nur” va “soya”lar orasidagi azaliy kurash mavzusi qalamga olingan.

39. Hoshimov, O‘. Tushda kechgan umrlar : roman / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 272 b.

Romanda keltirilgan voqealar qamrovi juda keng: 30-yillarning mash’um “qatag‘on” qilish manzaralarini, 80-yillardagi ko‘pchilikning yostig‘ini quritgan Afg‘oniston urushi lavhalari, shu yillarda sodir bo‘lgan “o‘zbek ishi”... Insonlar hayotida sodir bo‘ladigan bu uchta yirik, juda katta hajmli voqealarni bir-biri bilan bog‘lashda yozuvchi mahoratiga tan bermaslikning iloji yo‘q. Voqealar yoki qahramonlar haqida gapirib o‘tmoqchi emasmiz. Yaxshisi, o‘zingizni mutolaaga chorlaymiz.

2017

40. Hoshimov, O‘. Dunyoning ishlari : qissa va hikoyalari / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 336 b.

Yozuvchi ijodiga xos liro-romantik tarona uning “Dunyoning ishlari” qissasida eng baland pardalarda jarangladi. Bu asar ona haqidagi, ona qalbining cheksiz sahovati to‘g‘risidagi o‘ziga xos qasidadir. Asardagi Ona - farzandi, uning oromi, baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor. U ming-minglab o‘zbek onalarining timsoliga aylandi. Har bir o‘zbek kitobxoni unda o‘z onasining qandaydir fazilatini topgandek bo‘ladi.

41. Hoshimov, O‘. Tushda kechgan umrlar : qissa / O‘. Hoshimov. – Toshkent: O‘qituvchi NMIU, 2017. – 288 b.

El ardog‘idagi adib, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning ushbu asarida afg‘on urushi voqealari, urush qatnashchilarining urushdan keyingi ruhiy kechinmalari asar qahramoni Rustam obrazi orqali yorqin tasvirlab berilgan.

42. Hoshimov, O‘. Xajviy hikoyalar / O‘. Hoshimov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 192 b.

Ushbu to‘plamda elimizning atoqli va ardoqli adibi O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning eng sara hajviy asarlari jamlangan.

43. Hoshimov, O‘. Hikoyalar / O‘. Hoshimov. – Toshkent: O‘qituvchi NMIU, 2017. – 192 b.

O‘zbek hikoyachiligi rivojiga salmoqli xissa qo‘shtan O‘tkir Hoshimovning mazkur kitobiga jamlangan turli yillarda yozilgan eng sara hikoyalari kitobxonlarni befarq qoldirmasligi shubhasiz.

2018

44. Hoshimov, O‘. Bahor qaytmaydi : qissa / O‘. Hoshimov; Muharr. A. Jo`rayev. –Toshkent: Qaldirg`och, 2018. – 248 b.

“Bahor qaytmaydi” (1970) qissasida yozuvchi iste’dodli, biroq uning qadriga yetmagan, ulug‘ maqsadlardan mahrum xudbin yigitning tanazzul tarixini, ruhiy-ma’naviy inqirozini san’atkorona tahlil etib berdi. Bundan adibning haqiqiy ijod yo‘liga kirganligini ko‘ramiz.

45. Hoshimov, O‘. Ikki eshik orasi : roman / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2018. – 560 b.

Ushbu asarda adib qariyb qirq yillik davrni o‘z ichiga olgan, bir qancha chigal va murakkab taqdirlar misolida o‘z xalqining urush davrida boshdan kechirgan hayoti, qismati haqida mahorat bilan qalam tebratgan.

46. Hoshimov, O‘. Nur borki, soya bor : roman / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2018. – 288 b.

O‘tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” asarida jamiyat hayotidagi illatlar, turg‘unlikning mohiyati, inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muammo va qadriyatlar, insonlar o‘rtasidagi sevgi va xiyonat mavzusi qalamga olingan.

47. Hoshimov, O‘. Sevgi qissalari / O‘. Hoshimov. – Toshkent: O'qituvchi NMIU, 2018. – 296 b.

Elimizning atoqli va ardoqli adibi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov ham muhabbat haqida ta’lay hikoya, qissa, romanlar yozgan va ular kitobxonlar tomonidan qiziqish bilan mutolaa qilib kelinmoqda. Bu asarlarda sevgining sehr quvonchlari, iztirob va armonlar g‘oyat hayotiy, ta’sirchan aks etgan. Ushbu kitobga adibimizning eng hayajonli asarlari jamlangan.

48. Hoshimov, O‘. Urushning so‘nggi qurboni : Hikoyalari / O‘. Hoshimov. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 112 b.

Mazkur to‘plamda O‘tkir Hoshimovning turli yillarda yozilgan eng sara hikoyalari o‘rin olgan. Hikoyalarda turfa taqdirlaru voqealar adibning o‘ziga xos uslubida jilo topgan.

49. Hoshimov, O‘. Turmushning to‘rt tirkagi : qissa va hikoyalari / O‘. Hoshimov; Muharr. A. Samad. – Toshkent: Meriyus, 2018. – 416 b.

Ushbu kitobda o‘zbek adabiyotining atoqli namoyandasni, o‘zbek nasrchiliginini yuksaklikka olib chiqa olgan sevimli adibimiz, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning sara hikoyalari jamlangan.

2019

50. Hoshimov, O‘. Qalbingga qulog sol : qissa va hikoyalari / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Ziyo nashr, 2019. – 160 b.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning har bir asari kitobxohlar tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Adibning “Qalbingga qulog sol” qissasidagi Yodgor va Charosning quvonch-u iztiroblari o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

51. Hoshimov, O‘. Sirli yulduz : qissalar / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Ziyo nashr, 2019. – 176 b.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov asarlari adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egallagan. Adibdan meros qolgan asarlar bugungi kunda ham qayta-qayta nashr etilmoqda. Buning sababi, yozuvchining har bir asarida tasvirlangan voqealarning hayotiyligi, yuragimizga yaqinligida.

52. Hoshimov, O‘. Hurkitilgan tush : hikoyalari / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Ziyo nashr, 2019. – 160 b

Mazkur to‘plamdan O‘tkir Hoshimovning turli yillarda yozilgan eng sara hikoyalari o‘rin olgan. Hikoyalarda turfa taqdirlar-u voqealar adibning o‘ziga xos uslubida jilo topgan. Ularni o‘qirkansiz, go‘yo oramizdagи odamlar bor samimiyati bilan sahifalarga ko‘chgandek tasavvur uyg‘otadi, befarq qoldirmaydi.

53. Hoshimov, O‘. Osmondan tushgan pul : hajviy hikoyalari / O‘. Hoshimov. – Toshkent: Ziyo nashr, 2019. – 160 b.

“Osmondan tushgan pul” to‘plamiga adibning yurt Istiqloli ravnaqiga halaqit berayotgan illatlarni qoralovchi, tabassum va istehzoga yo‘g‘irilgan yangi hikoyalari va turli yillarda yozilgan asarlari jamlangan.

54. Hoshimov, O‘. Shamol esaveradi : qissalar / , O‘. Hoshimov. – Toshkent: Ziyo nashr, 2019. – 128 b.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning asarlari xalqimiz tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Buning boisi adib asarlarining hayotiyligi tilining jozibadorligi. Ushbu to‘plamda O‘tkir Hoshimovning “Shamol esaveradi”, “Cho‘l havosi” qissalari o‘rin olgan.

Jurnallarda chop etilgan maqolalari

1993

55. Hoshimov, O‘. Qatag‘on : Ikki pardali fojea : [sahifada O‘tkir Hoshimovning “Qatag‘on” nomli dramasi berilgan] / O‘. Hoshimov // Sharq yulduzi. – 1993. – № 3. – B. 44-57.

1995

56. Hoshimov, O‘. Xalq hayotining rangin manzaralari : [sahifada O‘tkir Hoshimovning “Xalq hayotining rangin manzaralari” asari berilgan] / O‘. Hoshimov // Sharq yulduzi. – 1995. – № 5-6. – B. 191.

1996

57. Hoshimov, O‘. Istiqlolni asraylik : [O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Istiqlolni asraylik” asari berilgan] / O‘. Hoshimov // Sharq yulduzi. – 1996. – № 1. – B. 3-10.

1999

58. Hoshimov, O‘. Ikki pardali fojea : [O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Ikki pardali fojea” asari berilgan] / O‘. Hoshimov // Sharq yulduzi. – 1999. – № 3. – B. 44.

2010

59. Hoshimov, O‘. Kitobxon mehrini yalinib xam, buyurib xam, sotib olib xam bo‘lmaydi : [O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov bilan adib xonardonida uchrashuv] / O‘. Hoshimov // Yoshlik. – 2010. – № 3. – B. 3-7.

2011

60. Hoshimov, O‘. Ijod - ma’naviy xodisa...mi? : [O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov bilan suhbat, Suhbatdosh: A. Nazar] / O‘. Hoshimov // Yoshlik. – 2011. – № 3. – B. 8-11.

Gazetalarda chop etilgan maqolalari

2015

61. Hoshimov, O‘. Urushning so‘nggi qurboni : [O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasi berilgan] / O‘. Hoshimov // Kitob dunyosi. – 2015. – 9 дек. – B. 6.

2016

62. Hoshimov, O‘. Hurkitilgan tush : [O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Hurkitilgan tush” hikoyasi berilgan] / O‘. Hoshimov // Kitob dunyosi. – 2016. – 11 май. – B. 6.

O‘tkir Hoshimov haqida jurnallarda chop etilgan maqolalar

2001

63. Normatov, U. Ruhiyat manzillari : [maqola O‘tkir Hoshimov asarlari haqida] / U. Normatov // Til va adabiyot ta’limi. – 2001. – № 3. – B. 56-68.

2004

64. Xolmurodov, A. Beg‘ubor qalb kechinmalari : [maqola O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi haqida] / A. Xolmurodov // Til va adabiyot ta’limi. – 2004. – № 2. – B. 63-66.

2011

65. Normatova, Sh. El ardog‘idagi adib : [O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning ijodi haqida] / Sh. Normatova // Til va adabiyot ta’limi. – 2011. – № 8. – B. 16-32.

2016

66. Tojiyev, A. O‘tkir tarjimon : [maqola O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi haqida] / A. Tojiyev // Jahon adabiyoti. – 2016. – № 8. – B. 139-142.

O‘tkir Hoshimov haqida gazetalarda chop etilgan maqolalar

2011

67. Boltaboyev, X. El sevgan adib : [el sevgan adib O‘tkir Hoshimov ijod yo‘li haqida] / X. Boltaboyev // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2011. – 5 авг. – B. 3.

2013

68. Saidov, A. Ismi xam, ijodi va faoliyati xam o‘tkir adib : [maqola O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov haqida] / A. Saidov // Kitob dunyosi. – 2013. – 23 окт. – B. 6.
69. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov : [nekrolog. Atoqli adib, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov vafoti haqida] // Xalq so‘zi. – 2013. – 25 май. – B. 2.
70. Umirov, S. Yetuk publisist edi : [O‘zbekiston xalq yozuvchisi, ko‘plab sevimli asarlar muallifi O‘tkir Hoshimov ijodi haqida] / S. Umirov // Xurriyat. – 2013. – 29 май. – B. 4.

2020

71. G‘afurov, I. Uch mahvash siymolar jamoli : [O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Orarov, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov haqida] / I. G‘afurov // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2020. – 8 дек. – B. 2.
72. Haydarova, R. Hayot haqiqatlarini muhrlab... : [O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov tavalludining 80 yilligiga] / R. Haydarova // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2020. – 11 дек. – B. 1.
73. Ibrohimova, I. Millatim – mushfiqim... mahobatligim, muhtashamim! : [O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asari haqida] / I. Ibrohimova // Vatanparvar. – 2020. – 15 may. – B. 8.

2021

74. A’zamxo‘jayeva, G. Xalq e’zozlagan adib : [el sevgan adib O‘tkir Hoshimov tavalludining 80 yilligiga] / G. A’zamxo‘jayeva // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2021. – 21 may. – B. 1-4.

Rus tilida

2002

75. Шарафутдинова, М. О. О художественной структуре романа : У. Хашимова
Меж двумя дверьми : [анализ романа] / М. О. Шарафутдинова // Преподавание
языка и литературы. – 2002. – № 2. – Б. 65-70.

Tuzuvchi : G. Valiyeva